SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

SAMARQAND, BUXORO VA XIVA TARIXIY ME'MORIY MUHITINI SAQLASHDA ZAMONAVIY SHAHARSOZLIK TALABLARINING O'RNI

Sulaymonov Jahongir Normurod o'g'li

Samarqand davlat texnika universiteti "Arxitektura tarixi va nazariyasi" kafedrasi magistranti

Sulaymonov Nazar Normurod o'g'li

Tashkent Perfect University "Xizmat sohalari iqtisodiyoti" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy me'moriy muhitini saqlash hamda zamonaviy shaharsozlik talablarini uyg'unlashtirish masalasi qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi tarixiy shaharlarning turizm, transport, muhandislik infratuzilmasi, uy-joy ehtiyojlari va ekologik barqarorlik bilan bog'liq bosimlar ostida rivojlanishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda UNESCOning 2011-yildagi Historic Urban Landscape (HUL) tavsiyasi, ICOMOSning tarixiy shaharlarni muhofaza qilish tamoyillari hamda Jahon merosi markazining O'zbekiston obyektlari bo'yicha materiallari tahlil qilindi. Metodologik jihatdan hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy case-study, tizimli yondashuv va ekspert-mezonli baholash sxemasidan foydalanildi. Maqolada tarixiylik va zamonaviylik muvozanatini baholash uchun integrallashgan mezonlar tizimi taklif etiladi. Tarixiy shaharlar bosh rejalari, muhofaza zonalari, transport sxemalari va merosga ta'sirni baholash jarayonlariga HUL tamoyillarini izchil kiritish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar

tarixiy me'moriy muhit, shaharsozlik, madaniy meros, tarixiy shahar landshafti, Samarqand, Buxoro, Xiva, UNESCO, konservatsiya, barqaror rivojlanish.

Kirish. Tarixiy shaharlar jamiyatning uzoq davr davomida shakllangan madaniy xotirasi, me'moriy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va makoniy tashkil topishining moddiy ifodasidir. Ularning qiymati faqat alohida obidalar yoki monumental binolar bilan cheklanmaydi; ko'cha tarmoqlari, mahallalar, hovlili uylar, bozorlar, jamoat makonlari, landshaft, an'anaviy faoliyatlar va shahar silueti ham tarixiy muhitning

tarkibiy qismlaridir. Shu sababli tarixiy shaharni muhofaza qilish masalasi alohida yodgorliklarni restavratsiya qilishdan kengroq bo‘lib, butun shahar tizimini boshqarishni talab etadi.

Samarqand, Buxoro va Xiva O‘zbekistonning tarixiy shaharsozlik merosini ifodalovchi, xalqaro miqyosda e’tirof etilgan markazlardir. Samarqand 2001-yilda, Buxoroning tarixiy markazi 1993-yilda, Xivadagi Ichan qal’a esa 1990-yilda UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu shaharlarning har biri o‘ziga xos tarixiy morfologiya, me’moriy ansambllar va ijtimoiy-madaniy qatlamlarga ega. Biroq ularning barchasida zamonaviy shaharsozlikning umumiy vazifalari avvalambor, transport oqimini tashkil etish, muhandislik tarmoqlarini yangilash, aholi turmush sifatini oshirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tarixiy muhitni saqlash bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

UNESCO tomonidan 2011-yilda qabul qilingan Tarixiy shahar landshafti (Historic Urban Landscape HUL) tavsiyasi tarixiy shaharni faqat muhofaza etiladigan markaz sifatida emas, balki tabiiy, moddiy, nomoddiy, ijtimoiy va iqtisodiy qatlamlar birligidan iborat dinamik tizim sifatida ko‘radi. HUL yondashuvi merosni saqlash va shahar rivojlanishini qarama-qarshi jarayonlar sifatida emas, balki o‘zaro muvofiqlashtirilishi kerak bo‘lgan siyosat yo‘nalishlari sifatida talqin qiladi. Maqolaning maqsadi Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy me’moriy muhitini saqlashda zamonaviy shaharsozlik talablarining o‘rnini aniqlash, uch shahar tajribasini qiyoslash hamda tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi amaliy mezonlar tizimini taklif etish. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uch shahar uchun umumiy, biroq mahalliy xususiyatlarga moslashtiriladigan tarixiy-me’moriy muhit va zamonaviy shaharsozlik uyg‘unligini baholash mezonlarini tizimlashtirish hamda rejalashtirish qarorlariga HUL va merosga ta’sirni baholash mexanizmlarini bog‘lashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy shaharlarni muhofaza qilish nazariyasida muhim burilish alohida yodgorlikni saqlash modelidan tarixiy shahar muhitini yaxlit boshqarish modeliga o‘tish bilan bog‘liq. UNESCOning 2011-yilgi HUL tavsiyasi tarixiy shahar landshaftini topografiya, geomorfologiya, gidrologiya, tarixiy va zamonaviy qurilgan muhit, infratuzilma, ochiq makonlar, yer foydalanish shakllari, vizual aloqalar, ijtimoiy

amaliyotlar va iqtisodiy jarayonlar yig‘indisi sifatida belgilaydi [1]. Bu ta’rif tarixiy muhitni faqat me’moriy obidalar ro‘yxati orqali emas, balki ularni yuzaga keltirgan makoniy va ijtimoiy munosabatlar orqali tahlil qilishni talab etadi. Samarqand bo‘yicha UNESCOning Jahon merosi hujjatlarida tarixiy qatlamlarning o‘zaro yonma-yon saqlangani, an’anaviy mahalla tuzilmasi va shahar morfologiyasining ahamiyati qayd etilgan. Shu bilan birga, yangi qurilishlar, xususiy mulkni modernizatsiya qilish va ayrim restavratsiya amaliyotlari tarixiylik hamda autentiklikka ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ko‘rsatiladi [1]. 2020-yilgi reaktiv monitoring missiyasi mahallalarni saqlash, buzish ishlariga ehtiyotkorlik bilan yondashish, jamoat makonlari dizayn kodeksini ishlab chiqish, shahar bosh rejasi va transport sxemasini meros talablari bilan muvofiqlashtirish bo‘yicha tavsiyalar bergan [7]. Buxoro tarixiy markazi bo‘yicha UNESCO materiallari yodgorliklarning yaxlitligini saqlash, doimiy monitoring, kompyuterlashtirilgan ma’lumotlar bazasi, bosh konservatsiya va rivojlanish rejasi, infratuzilma rejasi hamda turistik xizmatlar bo‘yicha dizayn ko‘rsatmalariga ehtiyojni qayd etadi [2]. Bu yondashuv Buxoroda tarixiy markazni faqat turistik obyekt sifatida emas, balki kundalik hayot davom etadigan murakkab shahar muhiti sifatida boshqarish zarurligini ko‘rsatadi. Xiva Ichan qal’asi bo‘yicha Jahon merosi hujjatlari tarixiy devorlar bilan chegaralangan shahar makoni, an’anaviy qurilish usullari va me’moriy ansambllarning yaxlitligini muhofaza qilishning ahamiyatini belgilaydi [3]. Xiva misolida turizmning iqtisodiy foydasi bilan tarixiy makonning haddan tashqari tijoratlashuvi, mahalliy aholining kundalik ehtiyojlari va an’anaviy hunarmandchilikning davomiyligi o‘rtasidagi muvozanat muhim masala hisoblanadi.

Adabiyotlar va xalqaro hujjatlar tahlili uchta muhim xulosani beradi. Birinchidan, tarixiy shaharni muhofaza qilish alohida yodgorliklarni ta’mirlash bilan cheklanmasligi kerak. Ikkinchidan, zamonaviy infratuzilma va qurilish loyihalari tarixiy muhitga ta’sirini oldindan baholashi zarur. Uchinchidan, mahalliy aholi, mulkdorlar, hunarmandlar, turizm biznesi, shaharsozlar va merosni muhofaza qiluvchi tashkilotlar qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan qiyosiy tahlil, so‘rovnoma, usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari Samarqandning tarixiy shahar

hududi, Buxoroning tarixiy markazi va XivaninIchan qal’a hududi belgilab olindi. Bu hududlar UNESCO Jahon merosi maqomiga egaligi, tarixiy shahar tuzilmasi va zamonaviy rivojlanish bosimlari jihatidan qiyosiy tahlil uchun mosligi sabab tanlandi. Tadqiqot tahlilida birinchi bosqichda hujjatlarni tematik kodlash orqali muhofaza qilinishi zarur bo‘lgan asosiy qiymatlar ajratildi. Ikkinchi bosqichda uch shahar bir xil mezonlar bo‘yicha qiyoslandi. Uchinchi bosqichda aniqlangan muammolar zamonaviy shaharsozlik vositalari bilan bog‘landi. To‘rtinchi bosqichda rejalashtirish qarorlarini baholash uchun integrallashgan mezonlar tizimi ishlab chiqildi.

Tahlil natijalari. Samarqandning tarixiy me’moriy muhiti turli davrlarga mansub qatlamlarning bir makonda yonma-yon mavjudligi bilan tavsiflanadi. UNESCO tavsifida Afrosiyob, Temuriylar davri shahri va keyingi davr qurilish qatlamlarining alohida tarixiy bosqichlarni ifodalashi qayd etiladi [1]. Demak, shaharsozlik siyosati faqat Registon, Go‘ri Amir yoki Shohi Zinda kabi yirik ansambllarni muhofaza qilish bilan cheklanmasdan, ularni bog‘lab turuvchi tarixiy makon, mahallalar, ko‘cha yo‘nalishlari va vizual aloqalarni ham saqlashi kerak.

Samarqand uchun asosiy shaharsozlik vazifalari quyidagilardan iborat: tarixiy markaz va bufer hududlarda qurilish balandligi hamda hajmini nazorat qilish; tarixiy panoramalar va ko‘rinish koridorlarini himoya qilish; mahalla tuzilmasini saqlash; avtomobil transporti oqimini tarixiy hududga ortiqcha bosim bermaydigan tarzda tashkil etish; yangi turistik va tijorat obyektlarini tarixiy muhitning masshtabi va xarakteriga moslashtirish. UNESCOning 2020-yilgi monitoring missiyasi mahallalarni saqlash, buzish takliflarini sinchiklab baholash, jamoat makonlari bo‘yicha dizayn kodeksini ishlab chiqish va bosh reja hamda transport sxemasini Jahon merosi talablari bilan muvofiqlashtirish zarurligini alohida ko‘rsatgan [7].

Buxoroning tarixiy markazi ko‘plab diniy, savdo, ta’lim va turar joy obyektlari bir-biriga bog‘langan yaxlit shahar muhitini namoyon etadi. Bu yerda me’moriy yodgorliklar bilan bir qatorda tor ko‘chalar, mahalla tuzilmasi, hovlili uylar, an’anaviy bozorlar va jamoat makonlari ham tarixiy qiymatning muhim qismidir. UNESCO hujjatida Buxoro uchun doimiy monitoring, kompyuterlashtirilgan ma’lumotlar bazasi, bosh konservatsiya

va rivojlanish rejasi, infratuzilma rejasi hamda turistik xizmatlar bo‘yicha dizayn ko‘rsatmalariga ehtiyoj qayd etilgan [2].

Buxoroda zamonaviy shaharsozlikning asosiy vazifasi muhandislik tarmoqlarini yangilash, sanitariya va yong‘in xavfsizligini yaxshilash, piyodalar harakatini qulaylashtirish va turizm xizmatlarini rivojlantirish jarayonlarida tarixiy qurilish qatlamlariga zarar yetkazmaslikdir. Yer osti kommunikatsiyalarini o‘tkazishdan oldin arxeologik va konstruktiv xavflarni baholash, ko‘cha qoplamalarini tarixiy muhitga mos tanlash, tashqi reklama va savdo jihozlarini tartibga solish, yangi binolarning balandligi hamda fasad ritmini nazorat qilish muhim.

Xivaning Ichan qal’a hududi mudofaa devorlari bilan chegaralangan tarixiy shahar makoni, zich qurilish tuzilmasi, an’anaviy hovlili uylar va monumental me’moriy ansambllar uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu muhitda har qanday yangi qurilish yoki infratuzilma aralashuvi nafaqat alohida bino, balki ko‘cha kengligi, ichki hovlilar, devorlar, siluet va tarixiy makonning umumiy idrok etilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xiva uchun zamonaviy shaharsozlik talablari, avvalo, Ichan qal’a ichida avtomobil harakatini cheklash yoki tartibga solish, piyodalar xavfsizligini kuchaytirish, muhandislik tarmoqlarini tarixiy konstruksiyalarga zarar yetkazmaydigan usulda modernizatsiya qilish, yong‘in xavfsizligi va chiqindilarni boshqarish tizimini yaxshilash bilan bog‘liq. Turistik oqimlarni mavsum va hududlar bo‘yicha boshqarish, tashrif buyuruvchilarni tarixiy markazning turli qismlariga yo‘naltirish hamda jamoat makonlarida haddan tashqari tijoratlashuvni cheklash zarur. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, uchala shaharda umumiy boshqaruv tamoyillari bir xil bo‘lsa-da, amaliy ustuvorliklar tarixiy makonning xususiyatlariga qarab farqlanadi.

1-jadval

Uch shahar bo‘yicha olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari

Shaharlar	Tarixiy muhitning ustuvor qiymati	Asosiy shaharsozlik talabi	Taklif etilayotgan yechimlar
Samarqand	Ko‘p qatlamli tarixiy morfologiya, mahallalar, panoramalar	Yangi qurilish, transport, turistik infratuzilma	Bosh reja va qurilish nazoratini HUL/HIA bilan bog‘lash

Shaharlar	Tarixiy muhitning ustuvor qiymati	Asosiy shaharsozlik talabi	Taklif etilayotgan yechimlar
Buxoro	Yaxlit tarixiy markaz, ko‘cha tarmog‘i, turar joy va savdo muhiti	Kommunikatsiyal arni yangilash, turizm bosimi, binolarni modernizatsiya qilish	Konservatsiya va infratuzilma rejasini birlashtirish
Xiva	Ichan qal’a devorlari, zich tarixiy tuzilma, an’anaviy qurilish	Tashrif buyuruvchilar oqimi, transport, tijoratlashuv	Piyodaviy boshqaruv, an’anaviy texnologiyalar, turizm va mahalliy hayot muvozanatini tashkil etish

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi integrallashgan mexanizm taklif etiladi:

1) Tarixiy muhit inventarizatsiyasi: bino va inshootlar, ko‘cha tarmoqlari, mahallalar, panoramalar, arxeologik qatlamlar, yashil hududlar va nomoddiy meros elementlarini yagona GIS ma’lumotlar bazasiga kiritish.

2) Qiymat va sezgirlik xaritalari: hududlarni tarixiy qiymat, autentiklik, vizual sezgirlik, konstruktiv holat va rivojlanish bosimi bo‘yicha tasniflash.

3) Differensial shaharsozlik reglamentlari: muhofaza yadrosi, bufer zona va kengroq tarixiy landshaft uchun qurilish balandligi, hajmi, material, fasad, reklama, transport va yer foydalanish talablarini alohida belgilash.

4) Merosga ta’sirni baholash: yirik qurilish, yo‘l, kommunikatsiya va turizm loyihalari uchun loyihaoldi HIA hamda muqobil variantlar tahlilini joriy etish.

5) Jamoatchilik ishtiroki: mahalla aholisi, mulkdorlar, hunarmandlar, turizm subyektlari va ekspertlarni rejalashtirishning dastlabki bosqichidan jalb qilish.

6) Moslashtirilgan infratuzilma: tarixiy konstruksiyalarga minimal aralashuv, qaytarish mumkin bo‘lgan yechimlar, yer osti ishlarida arxeologik nazorat, energiya samaradorligi va iqlimga moslashuv.

7) Monitoring va javobgarlik: foto-fiksatsiya, 3D skanerlash, GIS, muntazam texnik audit, ochiq indikatorlar va qarorlar ijrosi bo‘yicha hisobot tizimini yaratish.

Xulosa. Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy me’moriy muhitini saqlash zamonaviy shaharsozlik talablarini inkor etishni emas, balki ularni tarixiy qiymatlar bilan muvofiqlashtirishni talab qiladi. Tarixiy shaharlar tirik makon bo‘lib, ularda aholi yashashi, iqtisodiy faoliyat, turizm, transport va muhandislik xizmatlari davom etishi zarur. Biroq bu jarayon tarixiy morfologiya, autentiklik, yaxlitlik, panoramalar, mahalla hayoti va an’anaviy qurilish bilimlariga zarar yetkazmasligi kerak.

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Samarqandda ko‘p qatlamli tarixiy morfologiya, mahalla tuzilmasi va vizual yaxlitlikni yangi qurilish hamda transport qarorlari bilan birgalikda boshqarish ustuvor hisoblanadi;

2. Buxoroda tarixiy markazning yaxlitligi, an’anaviy turar joy muhiti va kundalik shahar hayotini saqlagan holda muhandislik infratuzilmasini ehtiyotkor modernizatsiya qilish zarur;

3. Xivada Ichan qal’aning makoniy yaxlitligi, an’anaviy qurilish texnikalari va turizm funksiyalari bilan mahalliy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim;

4. Shahar bosh rejalari, transport sxemalari, muhofaza zonalari va infratuzilma loyihalariga HUL yondashuvi hamda merosga ta’sirni baholash mexanizmlarini tizimli kiritish lozim;

5. Tarixiy muhitni boshqarishda GIS ma’lumotlar bazasi, 3D hujjatlashtirish, doimiy monitoring va jamoatchilik ishtiroki yagona boshqaruv tizimining tarkibiy qismlari bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzakova G. SHAHARSOZLIK SOHASIDA EKOLOGIK TALABLARGA RIOYA ETISHNING HUQUQIY MASALALARI //YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI. – 2021. – T. 5. – №. 4. – C. 91-99.

2. Jasurbek, M. J. M. (2026). BUYUK IPAK YO ‘LI: TARIXIY TARAQQIYOT, SAVDO ALOQALARI VA MADANIY SIVILIZATSIYALARARO MULOQOT. YANGI JADIDLAR ILM-FAN VA IJODDA, 1(5), 266-274.

3. ICOMOS. Tarixiy shaharlar, shaharchalar va shahar hududlarini muhofaza qilish hamda boshqarish bo‘yicha Valletta tamoyillari. ICOMOS Bosh assambleyasining 17-yig‘ilishida (2011-yil) qabul qilingan.

4. Xayriyev, J. (2026). BUXORO TARIXIY-MADANIY MEROSINI MUHOFAZA QILISH VA RESTAVRATSIYA MUAMMOLARI: “BUXORO HAQIQATI” GAZETASI MATERIALLARI ASOSIDA. Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar, 3(9), 296-301.

5. Tursunaliyevich, M. A. (2025). QURILISH SOHASIDA LOGISTIKA TIZIMLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO ‘LLARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (10), 1309-1317.

6. UNESCO Butunjahon merosi markazi. Samarqandga amalga oshirilgan reaktiv monitoring missiyasi bo‘yicha hisobot - 2020-yil yanvar.

7. UNESCO Butunjahon merosi markazi. 44 COM 7B.40-qaror: Samarqand - madaniyatlar chorrahasi (O‘zbekiston). 2021-yil.

8. UNESCO Butunjahon merosi markazi. O‘zbekistondagi Butunjahon merosi ob’ektlarida UNESCOning "Tarixiy shahar landshafti" (HUL) bo‘yicha tavsiyasini qo‘llash masalalariga bag‘ishlangan maslahat yig‘ilishi.

9. Nurmuxamedov, S. I., & Masharipova, S. B. Q. (2024). Tarixiy obidalarni saqlashda va umrboqiyligini oshirishda Petrolotum qo‘shimchasining o‘rni vazifasi. Science and Education, 5(1), 124-127.

10. Yuldasheva, G. S., & Xajayeva, S. K. (2020). O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Интернаука, (27), 99-101.